



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Sayfullayeva Ismigul Qodir qizi

Chirchiq davlat pedagogika instituti, o'qituvchi Toshkent, O'zbekiston.
e-mail: Sayfullayeva.ismigul@gmail.com
tel: +998970102607

KAR VA ZAIF ESHITUVCHI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA ART-TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

***Annotatsiya:** Ushbu maqola kar va zaif eshituvchi bolalarning ta'limi, ularni maktab ta'limiga tayyorlash va eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqini rivojlantirishda art-texnologiyalaridan foydalanish usullari haqida yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** Kar va zaif eshituvchi bolalar, interfaol metodlar, art-texnologiyalar, psixologik struktura, inklyuziv ta'lim, aqliy tarbiya.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ РЕЧИ У ГЛУХИХ И СЛАБОСЛЫШАЮЩИХ ДЕТЕЙ

***Аннотация:** В статье рассказывается о воспитании глухих и слабослышающих детей, их подготовке к школе и использовании художественных технологий в развитии речи у детей с нарушениями слуха.*

***Ключевые слова:** глухие и слабослышающие дети, интерактивные методы, художественные технологии, психологическая структура, инклюзивное образование, ментальное образование.*

THE USE OF ART TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF SPEECH IN DEAF AND HARD OF HEARING CHILDREN

Annotation: *The article describes the education of deaf and hard of hearing children, their preparation for school and the use of artistic technologies in the development of speech in children with hearing impairments.*

Keywords: *Deaf and hard of hearing children, interactive methods, art technologies, psychological structure, inclusive education, mental education*

Kirish. Normal intellektual rivojlanayotgan va eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarda nutqning paydo boʻlishi va rivojlanishi ularning atrofdagilar bilan muloqot qilish jarayonlarida amalga oshadi. Bu jarayonda bola nutqini umuminsoniy tajribaning qismi shaklida oʻzlashtiradi.

Eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarning nutqiy rivojlanishini tadqiq etish, ular nutqida grammatik tushunchalarni shakllantirish yoʻllarini oʻrganish bizning izlanishimizning asosiy nuqtai-nazarini tashkil etadi. Bu eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarning verbal rivojlanishi uchun xarakterli boʻlgan chuqur va oʻziga xos nuqsonlarni kuzatish imkoniyatini beradi va xuddi shu asnoda nutqning rivojlanishida intellektning oʻrnini aniq tushunishga imkon yaratiladi.

Rivojlanayotgan nutq dastlab muomala, belgilash vositasi sifatida chiqadi, keyinchalik fikrlash va fikrlarni bayon etish quroliga aylanadi, insonning xulq-atvori va faoliyatini tashkil etadi. Bola nutq bilan birga tahlil va sintezning yuqori ruhiy shakllariga, borliqni umumlashtirgan tarzda aks ettirish, oʻz niyatlari va harakatlarini anglash va boshqarish qobiliyatlariga ega boʻladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. S.A.Zikov fikricha, nutq bola ruhiyati shakllanishida katta ahamiyatga ega boʻlib, rivojlanishida nuqsoni bor bolaning rivojlanish qonuniyatlarini tushunish va unga maxsus taʼsir etish usullarini aniqlash uchun uning ahamiyati yanada oshadi. Nutq toʻgʻrisidagi hozirgi tasavvurlar, uni miya qobigʻining har bir nutq jarayonining u yoki bu tomonini taʼminlaydigan qator zonalarining birgalikdagi ishiga tayanadigan murakkab funksional tizim sifatida qarash imkonini beradi.

R.M. Boskis, E.G.Rechiskaya ilmiy-tadqiqotlarida nutqni harakatlantiruvchi va akustik analizatorlarning birgalikdagi ishi nutqning psixofiziologik asosini tashkil etadi. Nutqning psixologik strukturasi kelganda esa, shuni aytish mumkinki, nutq ikki darajada – soʻzning moddiy asosini taʼminlab beruvchi sensomotor darajada va soʻz hamda gaplarning maʼnosi va mohiyati darajasida amalga oshiriladi. Har ikkala daraja ham, har bir darajaning barcha boʻgʻinlari ham oʻzaro yaqin aloqada boʻladi, degan fikrlar eʼtirof etiladi.¹

Nutqning- bizning hayotimizdagi ahamiyatini baholash juda qiyin. Muloqot vositasi sifatidagi nutq bir vaqtning oʻzida biz uchun fikrlashning muhim quroli boʻlib xizmat qiladi. Maʼlumki, nutq insonning muhim ruhiy funksiyasi hisoblanadi. Nutqiy muloqot faqat insongagina xos boʻlgan odamlar oʻrtasidagi ijtimoiy aloqa usullarini yaratadi va shu tufayli bilish faoliyatining oliy shakllari rivojlanadi.

Nutqning meʼyorida va nuqsonli rivojlanish muammosi umumiy va maxsus pedagogikada oʻrganib chiqilgan. R.M. Boskis taʼkidlashicha, bola ijtimoiy va biologik omillar asosida nutqni egallaydi, ulardan birining buzilishi yoki yetishmasligi nutq patologiyasiga olib keladi. U yoki bu nutq buzilishi bor bola, atrofdagilarning nutqini tushuna olmaydi va oʻzi ham gapira olmaydi. Maxsus korreksion-pedagogik taʼsirsiz bolaning har tomonlama maʼnaviy, jismoniy, nutqiy rivojlanishini va maktabga tayyorlashni taʼminlab boʻlmaydi.

Defektolog-olimlarning tadqiqotlarida A.S.Vigotskiyning oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlgan anomal bolalar ruhiyatining rivojlanishi normal bola rivojlanishida kuzatiladigan asosiy qonuniyatlarga boʻysunadi degan qoidasi katta rol oʻynaydi. L.S.Vigotskiyning ilmiy-metodologik konsepsiyasi anomal bolalarni, xususan nutqida buzilishlari bor bolalarni maxsus oʻqitish va tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqishga yordam berdi.

L.M. Bikova, Ye.E. Vishnevskaya kabi tadqiqotchilar nutqni eshitish deganda, bolaning ayrim tovushlarni va ularning soʻzdagi ketma-ketligini eshitish

¹ Р.М. Боскис. Глухие и слабослышащие дети. М., 1983 г.-34-б.

qobiliyatini, ya'ni so'zni tovush yaxlitligida qabul qilish va nutq mazmunini tushunish qobiliyatini tushunadilar.²

F.A. Rau, F.F. Rau kabi surdopedagog-tadqiqotchilar esa nutqni eshitishni insonning maxsus psixolingvistik qobiliyati deb qaraydilar, bunda nafaqat uning qabul qilish (o'zlashtirish), balki qayta ifodalash (eslash) funksiyasiga alohida ahamiyat beradilar. Nutqni eshitish nutq qobiliyatining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, har qanday qobiliyat kabi u ham rivojlanadi, takomillashadi va oxir-oqibatda tilning fonologik vositalarini va umuman nutq madaniyatini o'zlashtirishni ta'minlaydi.³

Tadqiqot metodologiyasi. Bolalarga maktabda ta'lim berishning samaradorligi ularning jismoniy, aqliy va ahloqiy va psixik jihatdan tayyorligiga bog'liqdir.

Jismoniy tarbiya bo'yicha amalga oshirilgan ishlar bolaning maktab ta'limiga jismoniy tayyorligini ta'minlaydi. Maktabda o'quvchilarning kun tartibi o'zgarib, ertalabki mashg'ulotlar soni va vaqti ko'payadi, uy vazifasi joriy etiladi. Bularning hammasi maktabgacha yoshdagi bolalar xulq atvorida mavjud stereotiplarni qayta qurish, qo'shimcha jismoniy kuch quvvatni sarflash talab qilinadi.

Yetti yoshli bolalarda maktab-internat sharoitlarida o'ziga o'zi xizmat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan madaniy-gigiyenik malakalari shakllangan bo'lishi kerak. Bolalar bog'chasida bolada yozish, daktillash, predmet – amaliy ta'lim mashg'ulotlarida mehnat malaka va ko'nikmalarini egallash uchun zarur bo'lgan qo'l va barmoq harakatlari rivojlantirilishi zarur.

Maktabga tayyorlov guruhining tarbiyachisi va surdopedagog jismoniy mashqlarni takomillashtirish, harakatlar faolligini rivojlantirish va korreksion—

² Л.М. Быкова, Е.Е. Вишневская. Методика развития речи глухих школьников в младших классах. – Л., 1979.-67.б.

³ Ф.А. Рау, Ф.Ф. Рау. Методика обучения глухонемых приозношению. М., 1989 г.- 23.б.

tarbiyaviy ishlar vositasida bolalarni maktabga jismoniy jihatdan tayyorligini ta'minlaydilar.

Bolaning maktabga aqliy jihatdan tayyorligi bog'chada o'zlashtirgan bilim, malaka va ko'nikmalariga, fikrlash qobiliyatining darajasiga bog'liqdir. Maktabgacha tarbiya muassasi dasturiga bolalar uchun muhim bo'lgan 25 ta asosiy mavzu kiritiladi. Mavzular bolalarni qiziqtiradigan barcha sohalarni qamrab oladi (o'yinchoqlar, o'simliklar, kiyim-kechak, idish—tovoq, mebel, transport va h.k.). Aqliy tarbiya berish jarayonida surdopedagog va tarbiyachi bolalarga narsalar va hodisalar haqida olgan bilimlarni tahlil qilishni, taqqoslashni va umumlashtirishni, amaliy faoliyatni rejalashtirishni o'rgatadi.

Tahlil va natijalar.

Tahlil va natijalar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda so'zli nutqni shakllantirish maxsus bog'chaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Predmetlar, hodisalarni nomlash, hikoya tuzish, o'qish, rasmlar asosida bayon etish, o'qish jarayonida nutqiy material mustahkamlanadi. Pedagoglar rahbarligida bog'cha ta'limining ohiriga kelib bolaning maktab ta'limiga ahloqiy va irodaviy tayyorligi ta'minlanadi. Maxsus bolalar bog'chasidagi tashkil etilgan korreksion ta'lim-tarbiya jarayoni bolalarda jamoada yashash va o'qishga tayyorlashga qaratiladi. Bolalarda mustaqillik, uyushqoqlik, intizomlilik, kattalar va tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatish kabi axloqiy tushunchalar va sifatlar tarkib topadi. Bolalar o'quvchi burchlarini, madaniy xulq-qoidalarini bilishi va ularga amal qilishlari kerak. Bolani maktab ta'limiga tayyorlashda oila ham muhim rol o'ynaydi.

O'quv yilining ohirida mazkur komissiya a'zolari bolalar bog'chasi va maktab xodimlari bilan birgalikda bog'cha bitiruvchilarini maktab ta'limiga tayyorligini tekshiradi. Har bir bola alohida-alohida tekshirilib, oldindan bolalar psixonevrolog, otolaringolog, audiolog tekshiruvidan o'tkaziladi, eshitish, nutq va umumiy rivojlanishining holati haqida xulosa chiqariladi, muassasaning turi (kar yoki zaif eshituvchi bolalar maktabi) tavsiya qilinadi. (Tayyorlov yoki birinchi sinfi). Bolalar bog'chasi

pedagogik jamoasi har bir bolaga psixologik—pedagogik tavsifnomani tayyorlaydi, shundan so‘ng bola komissiya a‘zolari o‘tirgan xonaga taklif etiladi. Surdopedagog bola bilan suhbatlashadi, dasturga muvofiq topshiriqlar beradi, eshituv va nutqining holatini tekshiradi. Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya muhokamadan so‘ng bolaning kelajakda ta‘lim olish imkoniyatlari va qaysi turdagi maktabda o‘qishi haqida ota-onalariga tavsiyalar beradi. Komissiya faoliyatining yakunida barcha bog‘cha bitiruvchilarining maktab ta‘limiga tayyorlik darajasi haqida xulosalar chiqaradi

Maktab va bolalar bog‘chasi o‘rtasida yaqin, uzviy aloqa o‘rnatilishi uchun yil davomida hamkorlik qilinishi kerak. Bunday hamkorlik bolani maktabga psixologik jihatdan tayyorlash, bolaning yosh xususiyatlarini o‘rganish, metodik masalalar bo‘yicha ma‘ruzalar, bahs va munozaralar, birgalikdagi tadbirlar tarzida bo‘lishi mumkin.

Interfaol usullar – bu butun o‘qitish va bilimlarini o‘zlashtirish jarayonida o‘z oldiga ta‘lim shakllarining samaradorligini oshirish vazifasini qo‘yuvchi texnik hamda shaxs zaxiralar va ularning o‘zaro aloqasini hisobga olib, bilimlarini yaratish, qo‘llash va belgilashning tizimli uslubidir.

Interfaol-usullar o‘qitishga o‘ziga xos bo‘lgan yangicha yondashuv (innovatsiya)dan iborat bo‘lib, o‘yin usullarini ta‘lim tizimi, dars jarayonida tatbiq etilishi muhim va samarali natija beradi.

Interfaol -usullarni maxsus maktab ta‘lim tizimiga kiritish, tatbiq etish, qiziqarli usullardan foydalanish, o‘zining samarasini bermoqda. Shulardan biri – art-texnologiyalardir. Art-texnologiyalar kar va zaif eshituvchi bolaning, sensorikasini, eshituv idrokini, bilish jarayonlarini, tafakkurini va nutqini rivojlantirishga yordam beradi. Bilamizki, Art-texnologiyalarning bir necha turi bor, jumladan, musiqa terapiyasi, art-terapiya, qum-terapiya, izo-terapiya va boshqalar. Bu texnologiyalar yordamida, kar va zaif eshituvchi bolalarning mayda va umumiy motorikasi bevosita rivojlanadi.

Xulosa va takliflar. Zamonaviy art-texnologiya usullari, bugungi kunda maxsus maktab uchun o‘quv jarayonining zaruriy va asosiy komponentiga aylanib

bormoqda. Chunki pedagogik texnologiya o'qitishga o'ziga xos yangicha yondashuvdan iborat bo'lib, o'yin yangicha, ilg'or, shu bilan birga samarador usullarini ta'lim tizimiga dars jarayonida tatbiq etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Faoliyatimiz davomida olib borilgan ta'limiy eksperiment natijalari shuni ko'rsatdiki, yakka mashg'ulotlarni noan'anaviy tarzda tashkil etish va ularni interfaol o'yinlar, art-texnologiyalarning turli shaklida olib borish yaxshi samara beradi. Bu faoliyatga bolaning o'zi faol qatnashib borganligi sababli, oldimizga qo'yilgan maqsadga erishish oson kechadi. Mana shu omillarni inobatga olgan holda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishda interfaol o'yinlardan, art-terapiyadan unumli foydalanishni tavsiya etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Р.М. Боскис. Глухие и слабослышащие дети. М., 1983 г.-34-б.
2. Л.М. Быкова, Е.Е. Вишневская. Методика развития речи глухих школьников в младших классах. – Л., 1979.-67.б.
3. Ф.А. Рау, Ф.Ф. Рау. Методика обучения глухонемых приозношению. М., 1989 г.- 23.б.
4. М.В. Киселева. “Арт терапия- в работе с детьми”. Санкт-Петербург., 2006г.- 19.б.
5. I.Q.Sayfullayeva. Eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematikani o'rgatishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni. Maktab va hayot. 2020 y.-26 b.
6. I.Q. Sayfullayeva. Eshitishda nuqsoni bor 1-2 sinf o'quvchilarining arifmetik amallarni bajarishga o'rgatishning samarali usullari. TDPU Ilmiy axborotlari 3-son. 2020 y